

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

INCREASING THE LEVEL OF ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN

Sheraliyev is the son of Islambek Ravshanbek

1st year student of the "Finance and Financial Technologies" department of TMI Andijan Faculty.

Kholmirezayev is the son of Daniyorjon Elyorjon

Faculty of TMI Andijan "Taxes and Taxation" course 1st year requirement

Annotation

In this article, a brief history of economic growth in the Republic of Uzbekistan, the years of development, the opinions of the World and Asian banks about the level of economic growth in Uzbekistan, the impact of the Ukrainian-Russian conflict on Uzbekistan and Asian countries. about and Gross Domestic Product (GDP) growth levels and years. Experiences of developed countries in economic growth, as well as proposals and conclusions related to the sector are discussed.

Key words: economic growth, market economy, national economic laws, economic stability, "UzDaewooAvto", gross domestic product (GDP), development of competitive environment, statistical data.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi ilk mustaqillikka erishgan kundan boshlab iqtisodiy o'sish kuzatila boshlangan. Buning asosida Respublikamiz birinchi Prezidenti I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy taraqqiyot yo'li deb "Bozor iqtisodiyoti" yo'lini tanlashi deyish mumkin. Aynan shu bilan asta sekin bozor iqtisodiyotiga mos ravishda milliy iqtisodiy qonunlar, farmonlar va Prezident qarorlari e'lon qilinib ijrosi ta'minlanishi bilan iqtisodiy o'sish ham yuzaga kela boshladi. Shu bilan bir qatorda Islom Karimov O'zbekistonni dunyo bozoriga ochiq iqtisodiyot bilan chiqishi va milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida Investrlar uchun ko'plab qulayliklar yaratdi hamda ularning haq-huquqlarini qonun bilan kafolatlab qo'ydi. Albatta o'z huquqlari qonun bilan kafolatlangan va erkin iqtisodiy faoliyat yuritishni istagan investrlarni hech qanday qorquvlarsiz o'z biznesini yo'lga qo'yib borishi va ko'plab ish o'rinlarni yaratilishi bilan iqtisodiy o'sish ham teng oshib bordi. Iqtisodiy rivojlanish darajasi oshib borishi bilan O'zbekistonning mustaqilligini deyarli barcha mamlakat va davlatlar tan ola boshladi. Buning



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

natijasida iqtisodiy hamkorlik a'loqalari ham kengayib rivojlanib bordi. Iqtisodiy a'loqalar kuchayib borgan sari asta sekinlik bilan ko'plab soxalarda milliy maxsulotlarimiz eksport qilina boshlandi. Oqilona iqtisodiy siyosat tufayli O'zbekiston iqtisodiy barqarorligi yo'lga qo'ya boshladi.

Iqtisodiy barqarorlik ta'minlanishi bilan tabiiyki mamlakatning aholi qatlamida ham asta sekinlik bilan ziyoli va boy qatlam shakllana boshladi. Mustaqillikgacha aholining juda ko'p qismi dexqonchilik bilan shug'illangan bo'lsa mustaqillikdan keyin ilm-fan, ta'lim, texnologik rivojlanish, iqtisodiy yuksalish kabi ko'plab zamon talabi bo'lgan soxalarga katta e'tibor berila boshlandi. Shu jumladan sport soxasi bo'yicha barcha viloyatlarda "Olimpiya zaxiralari" kollejlari, fudbol maktablari va turli sport yo'nalishlari markazlarining ochilishi bunga yaqqol misoldir. Ta'lim soxasiga to'xtalsak mamlakat rivoji uchun qanday soxalar muxim bo'lsa o'sha soxaga doyr universitet va institutlar ochildishi hamda ularga qo'shimcha ravishda o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgan kadrlarni yetkazib beruvchi texnikum, kasb-hunar maktablari va kollejlarning ochilishi hukumat uchun zarur kadrlarni tetishib chiqishiga sabab bo'ldi. Shu bilangina cheklanmasdan respublikamiz birinchi prezidenti Islom Karimov Janubiy koreya bilan hamkorlikda O'zbekistonda yirik muammoga aylangan transport masalasiga chek qo'yib 1996-yil "UzDaewooAvto"ga asos solidi. Bu kabi ko'plab islohotlar orqali mamlakatimizda iqtisodiy barqarorlik ta'minlandi va hozirgi kunga qadar rivojlanib kelmoqda. Shavkat Mirziyoyevning hozirgi kungi O'zbekiston iqtisodiyotini yanada rivojlantirish yo'lidagi harakatlari ham o'z natijasini ko'rsatmoqda va Prezidentimizning 2022-yil yakuni bo'yicha xalqqa murojatnomasida YIM (Yalpi ichki maxsulot) aylanmasi 80 milliard dollar [1]ni tashkil qilishi bu to'g'ri iqtisodiy siyosat olib borilayotganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar va taxlillar

Iqtisodiy o'sish-bu mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko'paygan miqdorda takrorlanishi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy O'sishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy O'sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi[2].



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Iqtisodiy O'sish negizida iqtisodiyotdagi yetakchi tarmoqlarning rivojlanishi turadi. Iqtisodiy o'sish ishlab chiqarishning ilg'or tuzilmasiga, yuqori mehnat unumdorligi darajasiga, ichki va tashqi bozorda talab katta bo'lgan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga, mahsulotni qulay bozorlarda sotishga tayanadi. Boshqacha aytganda, iqtisodiy O'sish mahsulot ishlab chiqarishning real hajmini muttasil qo'paytirib borish va ayni paytda jamiyat taraqqiyotida texnologik, iqtisodiy va ijtimoiy tavsiflarning yaxshilanib borishini anglatadi. Iqtisodiy O'sishni aniqlash va hisoblashda mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining eng umumiy ko'rsatkichi bo'lgan [yalpi ichki mahsulot](#) (YAIM) asos bo'lib xizmat qiladi va iqtisodiy o'sishning muayyan davr mobaynida real YAIM hajmining ijobiy tomonga o'zgarishini ko'rsatadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari YAIM o'sish sur'atlarida o'z aksini topadi. Iqtisodiy O'sish mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy holatini ifodalaydi. Real YAIM hajmining o'zgarishi mamlakat iqtisodiyoti holati va dinamikasi to'g'risida ma'lumot bersada, iqtisodiy O'sishni to'liq aks ettirmaydi. Mas, mamlakat aholisining O'sish sur'ati 3% ni, real YAIM ning O'sish sur'ati ham 3% ni tashkil etdi. Bunday holatda, garchi YAIM hajmi o'sgan bo'lsada, kishilarning daromadlari o'zgarmay qoladi. Shu sababli iqtisodiy O'sishni to'laroq aks ettirish uchun boshqa bir ko'rsatkich — aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan real YAIMning o'zgarishi qo'llaniladi[3].

Shu bilan bir qatorda O'zbekistonning qisqacha tarixiga to'xtalsak O'zbekiston Respublikasidagi holat 1997-yilga kelib oldingi yillarga qaraganda Yalpi Milliy maxsulot hajmi ko'rsatkichlari 105.2%, sanoat 105.8%, qurilish 102.6%, savdo 112.7%, aholiga pulli xizmat 121.3%, xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish 111.2%, kapital mablag'larni o'zlashtirish 117.0% YMM(Yalpi milliy maxsulot) xajmining aholi jon boshiga olinadigan foizi 103.2%[2] ni tashkil qilganini kuzatishimiz mumkin albatta bunday yuqori korsatkichlar mustaqil bo'lib chiqqan davlat uchun a'lo darajadagi ko'rsatkich hisoblanadi. Lekin biz o'tkan yil hisobiga yuzlansak 2022- yil yakunlariga ko'ra, **YAIM o'sishi** 5,7 % ga yetdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YAIM umumiy hajmining 93,2 % ini tashkil etdi va 6,2 % ga o'sdi. Mahsulotlarga sof soliqlarning YAIM tarkibidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi va 2021- yil bilan taqqoslaganda 0,8 % ga kamaydi.

Faoliyat turlari bo'yicha qo'shilgan qiymatning o'sishi quyidagicha bo'ldi:

- qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 3,6 %;
- sanoatda – 5,2 %;



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- qurilishda – 6,6 %;
- xizmatlar sohasida – 8,5 %.[4]

Albatta bu korsatkichlar oldingi yilga nisbatan osishni emas pasayishni ko'ramiz. Lekin bu borada joriy yilgi o'zgarishlar uchun ham jahon va osiyo banklari ijobiy prognoz bildirmoqda deya olmaymiz balki 2022 yilda O'zbekiston YAIM o'sishi, Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 5,7 foizni tashkil etdi. JBning 2023 yil uchun mamlakat prognozi o'zgarishsiz qoldi — 4,9 foiz. Markaziy Osiyo uchun savdo yo'llarining o'zgarishi Ukrainadagi urushning salbiy oqibatlarini qisman yumshatishi mumkin, deb hisoblaydi bank.[5] Albatta tom ma'noda nafaqat O'zbekiston balki ko'plab davlatlar iqtisodiy o'sishiga ham Ukrainada bo'layotgan urush salbiy ta'sir qilayapdi va iqtisodiy o'sish darajasi oldingi yillarga taqqoslaganda past darajani ko'rsatmoqda. Iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biri bu eksport hisonblansa urush va sanksiyalar bunga salbiy ta'sir qilmoqda va bizda Ukrainadan import qilinadigan maxsulotlar butunlay to'xtagani va Rossiya tomonidan kirib keluvchi maxsulotlar kamaygani bizning mamlakat bozorlariga ham o'z ta'sirini o'tkazdi va narxlarning keskin oshishiga sabab bo'ldi. Shu jumladan hukumatimiz tomonidan olib borilgan islohotlar orqali ma'lum darajada narxlar kamaydi va odatiy tarziga qaytdi.

2022 yilda O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasi 5,7 foizga yetdi. Bu haqda Jahon bankining «Jahon iqtisodiy istiqbollari» choraklik hisobotida so'z boradi. «2023 yilda Rossiyadagi retsessiya va Xitoydagi o'sishning sustligi Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi iqtisodiy faollik darajasiga salbiy ta'sir qiladi», — deyiladi hisobotda. Jahon banki prognoziga ko'ra, mintaqa iqtisodiyotining o'sishi 3,9 foizni tashkil etadi. O'zbekistonda yalpi ichki mahsulot 4,9 foizga, Qozog'istonda 3,5 foizga, Qirg'izistonda 3,5 foizga, Tojikistonda 5 foizga o'sishi kutilmoqda. Eslatib o'tamiz, o'tgan yilning oktabr oyida Jahon banki O'zbekistonda 2022 yilda YAIM o'sishi prognozini 4,3 foizdan 5,3 foizga ko'targan, biroq 2023 yil uchun 5,3 foizdan 4,9 foizga tushirgan edi[5].

Bundan ko'rnib turibdiki urushning salbiy oqibatlari nafaqat bizning balki chegaradosh mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Hattoki joriy yilda ishlab chiqarish soxasida yetakchi o'rinni egallab turgan Xitoy xalq respublikasida ham iqtisodiy o'sish surati sust bo'layotgani va bu butun Osiyo mintaqasiga o'z tasirini o'tkazishi aytilmoqda. Albatta bunday davlatlarda ham kuzatilayotgan sustlik bizning davlatda ham bo'lishi bu unchalik qo'rqinchilik holat emas ekanligidan dalolat. Lekin bizda iqtisodiy o'sish darajasi chegaradosh ayrim



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

davlatlarga qaraganda yaxshiroq ekanligi yaqqol ko'zga tashlanadi lekin shunga qaramasda biz ildam va yanada tezroq harakat qilishimiz bu zamon talabi ekanligini unutmasligimiz kerak.

Tadqiqot Metodologiyasi

Ushbu maqola nazriy va uslubiy asosi bo'lib mamlakatimizdagi iqtisodiy ahvol, iqtisodiy o'sishning ko'rsatkichlari va statistik ma'lumotlari hamda ushbu mavzuga doir berilgan olimlarning ta'riflari va Jahon va Osiyo banklarining O'zbekistonga nisbatan bergan statistik ma'lumotlari va kejakda bo'lishi mumkin bo'lgan prognozlari, fikr-mulohazalari xizmat qiladi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida iqtisodiy o'sishni baholash, bo'lishi mumkin bo'lgan prognozlarga fikr va mulohazalar bildirish, qiyosiy tahlillar o'tkazish orqali mavzuga doir xulosalar chiqarish kabi usullardan foydalanilgan.

Taxlil natijalari.

Ushbu olib borilgan tadqiqot natijalariga, qo'lga kiritilgan ma'lumotlar va unga berilgan fikr-mulohazalarga ko'ra quyidagicha g'oyalarni ilgari surish mumkin. O'zbekistonning Iqtisodii o'sishini yanada rivojlantirish maqsadida joriy qilingan bir qator qonun va farmunlarga ko'ra olib borilgan islohotlar shuni ko'rsatib beradiki iqtisodiy o'sish darajasi Respublika hududida sezilarli darajada o'sayotgani kuztilmoqda. Shu bilan birgalikda iqtisodiy o'sishning asosiy omillari sifatida shunday fikrlarni berishim mumkinki, iqtisodiy o'sish omillarining asosi bu ishlab chiqarish soxalari xisoblanadi. Bular asosan sanoat, avtomobilsozlik, to'qimachilik, qishloq xo'jaligi va hokazolar. Iqtisodiy o'sish bo'yicha hozirgi kundagi rivojlangan davlatlar tajribasida shuni ko'rish mumkinki ular bu natijalarga kichik biznesni va tadbirkorlikni rivojlantirish bilan mamlakat ishlab chiqaruvchi mayda korxonalar o'rtasidagi yirik raqobat muhitini yaratishi va bu soxaga keng yo'l ochib berishi bo'ldi. Albatta bu borada hukumatimiz tomonidan ham sezilarli ishlar olib borilmoqda. Lekin biz hozirgi zamondagi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy tarixiga yuzlansak va ularni taxlil qilsak ularda bunday islohotlar avvalroq boshlanganini ko'ramiz. Tarixan AQSH Kongiresida 1953-yil biznes bilan shug'ullanuvchi kichik biznes ishlari bo'yicha ma'muriyat tuzilgan bo'lib, uning hududiy qo'mitalari (30-40 kishidan iborat bo'lgan) har bir shtatda tashkil etilgan ko'mitaning bosh maqsadi mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini har tomonlama qo'llab quvvatlash hisoblangan va bu islohotlar qator



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tartibga soluvchi qonunlar qabul qilinishiga va 1970-1973-yillardan boshlab yirik kompaniyalar mayda kichik korxonalarga ajrala boshlagan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda chet mamlakatlari miqyosida ko'radigan bo'sak: Angilya, Korea, Fransiya va Yaponiya kabi mamlakatlar ham yuqoridagi taktikani ko'llab o'z iqtisodiyotini yuksalishida o'z o'rniga ega bo'lgan[6]. Albatta bu kabi davlatlar erishgan yutuqlari juda yuqori lekin ular mustaqil bo'lgan yillariga e'tibor bersak bu anchayin uzoq tarixga borib taqaladi. Shu boisdan biz atiga mustaqil bo'lganiga hali yarim asr bo'lmagan davlat sifatida erishgan yutuqlarimiz maqtovg'a sazovor desak adashmagan bo'lamiz. Shu bilan bir qatorda shuni aytib o'tish bilan fikrimni yakunlasam O'zbekiston Respublika bo'lib chiqishi bilan bir haqiqatni tan olish kerakki bizda iqtisodiy inqiroz yuz bergan. Odamlar ilk mistaqillik yillaridan haqiqiy sinovlarga duch kelishga allaqachon ulgurgan edi. Shu o'rinda Islom Karimovning adolatli va tog'ri iqtisodiy siyosat yurita oldi va ilk yillardanoq iqtisodiy o'sish kuzatilishini sababchisi bo'gan deya olamiz.

Xulosa va takliflar.

Biz iqtisodiy o'sish bo'yicha ko'p ma'lumotlar keltirib o'ta olamagan bo'lsak ham lekin soxaga doir yetarlicha informatsiya berildi deb ayta olamiz. Biz yuqoridagi taklif va ma'lumotlarni keltirib o'tdik lekin bu borada shaxsiy yondashuv bilan fikr-mulohaza va takliflarni keltirib o'tsak bzing Respublikada iqtisodiy o'sishni ta'minlash uni miqdorini yanada oshirish yalpi ichki maxsulot hajmini aholi jon boshiga iloji boricha rivojlangan davlatlar qatori bo'linishini va muhim masala bo'lgan aholini roziligini olish hozirda bosh iqtisodiy masala bo'lib turubdi. Iqtisodiy o'sish masalasi hozirda mamlakatimizda Yalpi Ichki Maxsulot bilan o'lchasak 2021-2022-yil oralig'ida deyarli 20% ga o'sganini xalqaro standartlar bilan 5.7% o'sganini ko'ramiz va bu xalq uchun ma'lum soxalarda oylik maoshlari ko'tarilishiga, ta'lim soxasini rivojlantirishga, aholini qari qatlami uchun pensiya miqdorini osishi kabi ko'plab misollar keltirish mumkin. Lekin uni yanada rivojlantirish uchun hozirgi yirik kompaniyalarni maydalashtirish va Respublika hududida raqobat muxitini rivojlantirish va bo'lajak biznesmen va tadbirkorlar uchun keng yo'l ochib yangi imkoniyat hamda moliyaviy savodxonlik bilan iloji boricha xabardorlik qilish kerak. Chunki bizning iqtisodiy o'sish darajamizni keyinchalik qo'liga oluvchi yosh avlod agarda moliyaviy savodxonlikga ega bo'lmasa nafaqat bizning balki boshqa davlat misolida ko'radigan bo'lsak ham bunday davlatning iqtisodiy muvaffaqqiyatlarga erishishini bir tomonga qo'yib



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

tursak hattoki katta extimol bilan inqirozga yuz tutishi mumkin. Albatta bunday go'zal O'zbekistonning iqtisodiy kelajagi biz yoshlar qo'lida uning bir kun kelinb rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shish ham bir kun kelib iqtisodiy inqirozi sababchisi bo'lib qolishimiz ham o'z qo'limizda. Albatta bulardan hulosa qilgan xolda yosh kadrlarga dunyo tajribasi asosida yetarli bilim berish va amaliyot bilan doimiy ravishda bog'lab ularni yetuk mutaxasis qilib yetishtirish zamon talabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh. Mirziyoyevning 2022-yil yakuni bo'yicha xalqqa murojatnomasidan.
2. Wikipedia.org.
3. stat.uz
4. surxonstst.uz
5. gazeta.uz
6. A. Abdullayev, A. Sotvoldiyev, I. O'rinboyev "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik : tashkil etish, rejalashtirish, boshqarish" o'quv qo'lanmasi. Toshkent-"Fan va texnologiya" -2005.

